

**ALISHER NAVOIY ASARLARIDA UMUMINSONIY
G’OYALAR TALQINI**

***Yusupova Muslima Olimjon qizi,
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi***

Alisher Navoiy – benazir ijodkor, jahon adabiyotining yirik vakili, g‘azal mulkining sultonı. Uning yangroq ovozi hali-hanuz jaranglamoqda, ijodiy merosi esa minglab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. U yaratib qoldirgan boy merosning katta qismini lirika tashkil etadi. Lirik turning g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy va tuyuq kabi janrlarida shoir g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak asarlarni yaratdi.

Navoiy lirkasida oshiq, yor, rind, raqib, shayx, zohid, voiz, podshoh va boshqa obrazlar ham bor. Oshiq va yor obrazlarida samimi sevgi, sadoqat, vafo va boshqa ezgu insoniy hislatlar tarannum qilinadi. Navoiy xo‘rlangan, jabrlangan xotin-qizlarni e’zozlaydi, sharaflaydi. U yordan shikoyat qilish orqali ko‘pincha yashagan muhitiningadolatsizligi, insofsizligidan noliydi. Shuning uchun ham, Navoiy zolim yorniadolatsiz podshohga, insofsiz amaldorga, himmatsiz davlatmandga, shafqatsiz jallodga o‘xshatadi.

Navoiyning sotsial mazmunga ega bo‘lgan g‘azallari orasida quyidagi g‘azal alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni unda shoir o‘sha davrdagiadolatsizlikdan shikoyat qiladi. G‘azalda shafqatsiz va mutakkabbir podsho, xudbin oshiq, jafokash kishilarning obrazlari mavjuddir:

*Shohning munglug’ mushavvashlar bila ne nisbati?
Komronlarning balokashlarga qaydin ulfati?
Mo ‘r ayog ‘ ostida o ‘lgandin qachon topqay vuquf
Arslonkim, ko ‘kka chirmashkay g ‘irivi shavqati?*

Yuqoridagi baytda esa shon-shuhrati bilan o‘ta mag‘rurlangan zolim podshohlardan shoir qattiq g‘azablanadi. Yuqoridagi baytning o‘zida shavqatning shovqin-suroni ko‘kka chirmashgan arslonning oyog‘i ostida chumolining o‘lib ketganidan hatto xabardor bo‘lishi dargumonligi mahorat bilan tasvirlanadi. G‘azalda qo‘llangan tazod va tadrij uzviy birlikni tashkil etgan. Davr bilan bog‘liq muammolarning qalamga olinilishi o‘quvchining o‘sha paytlardagi muhit bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha tasavvurini oydinlashtiradi.

Shoirning aksariyat g‘azallarida lirik qahramon uning o‘zi. Shoир yorga atalgan izhor va ko‘ngildagi so‘zlarni ajib bir mahorat ila ifoda etadi.

Quyidagi g‘azalida shoir ko‘zim hojatini yuzingni menga ochib, ravo et deya nido qiladi:

*Sunub ko ‘nglimni yuzingga, murod etib hosil
Ochib yuzungni, ko ‘zum hojating ravo qilsang.*

Quyida esa muallifning nechalab go‘zallar orasida o‘z yorini tanlaganligiga ishora bor:

*Telbalardain garchi rad qilding meni, lek anglag ‘il,
Kim pari ruxsoralardin tanglag ‘onim sen mening.*

Darhaqiqat, ishq va muhabbat borasida minglab she’riy va nasriy asarlar bo‘lishiga qaramay, ularning hech biri Navoiy ijodidek yarq etib ko‘zga tashlanmaydi. Ya’ni yor vaslini ta’riflash, uning jamoliga erishishdek ulug‘vor amalga erishish yo‘lidagi mashaqqatlarni Navoiy singari mahurat bilan bayon etgan mutaffakkir bo‘lmasa kerak. Aslida she’rni tahlil qilganda biz, shoir undoq deydi, bundoq deydi, falon g‘oyani ilgari suradi, deya so‘z yuritamiz. Aslida esa, O‘zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda “She’r nasihat, targ‘ib-u tashviq emas, yurak tebranishlari ekanini unutamiz.” Navoiy g‘azallarini o‘qir ekansiz, ana shu yurak tebranishlari aks etgan sirli olamga tushib qolgandek, so‘zning sehrini tuygandek bo‘lasiz go‘yo.

*Junun vodiysig ‘a moyil ko ‘rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo ‘li buzmoq buzulg ‘on ro ‘zg ‘orimni*
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 638-g‘azal)

Shoir o‘z jonini junun, ya’ni telbalik vodiysiga moyil ko‘radi. Ostin-ustun bo‘lgan hayoti va ro‘zg‘orini uni aqldan ozdirganidan telbalikni bo‘yniga oladi.

Shoirning o‘lmas gumanizm bilan ko‘kargan hayotbaxsh g‘oyalari “dunyoviy” asarlarida qanday porlab tursa, biz bir chekkaga surib qo‘ymoqchi bo‘lgan “ilohiy” asarlarida ham shunday kuch bilan nur taratib turadi.

Quyidagi muammoda esa insonning o‘zidan yaxshi ot qoldirmoqligini saodatga tenglashtiriladi:

*Bu gulshan ichkari yo ‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.*

Navoiy haqida ko‘p va xo‘p yozilishiga qaramay, uning shu qadar boy adabiy merosini o‘rganish asrlar davomida an’ana sifatida davom etmoqda. Navoiyni o‘rganishdan asosiy maqad nafaqat uning jozibador tilini o‘rganish, balki o‘scha bebafo so‘z xazinasini asrash hamdir.

Yurtimizda Alisher Navoiy ijodini chuqur o‘rganish, uni keng ommaga targ‘ib qilish yo‘lida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiy nomi bilan oliygoh va

kutubxona shuningdek, ko‘plab ziyo maskanlari faoliat yuritmoqda. Bugun Navoiyga muhabbat qo‘ygan, uning ijodini chuqur o‘rganishga kirishgan, mehnatkash va zukko yoshlar shoir Sirojiddin Sayyid ta’biri bilan aytganda, tom ma’noda Navoiyning nabiralaridir.

*Tiriklikning bol, shiralari,
Biri ulug‘, kichik birlari,
Faxr etib yurgaydir bari,
Navoiyning nabiralari.*

*Hazrat bobo So‘zni o‘ylagan,
Qancha qosh-u ko‘zni o‘ylagan.
Asli ul zot Sizni o‘ylagan,
Navoiyning nabiralari.*

Yurtimizda ijod maktablari o‘quvchilari hamda ijodkor yoshlarga har qancha Navoiy hazratlarining boy merosi chuqur o‘rgatilsa, uning ma’naviy olamidan o‘quvchi yoshlar saboq olishsa nur ustiga nурdir.